

SIYOSIY PARTIYALAR NAZORATINI SAMARALI QILISH YO'LLARI

Aliyev Ulug'bek Bekmurotovich

Samarqand Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 2- bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15493830>

Annotatsiya. Maqolada nazorat tizimining muhim vositasi bo'lgan siyosiy partiyalar nazoratini samarali qilish masalasi o'rganilgan. Unda nazorat faoliyatini samarali qilish borasida ikkita asosiy muammo ya'ni nazorat faoliyatiga doir bilimni yetarli emasligi va befarqlik kayfiyati borligi qayd qilingan. Ushbu muammolarni yechimi ijtimoiy nazoratga doir bilimni berish va daxldorlik hissini shakllantiradigan ma'naviyatni yuksaltirish bilan bog'liqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy partiyalar, ijtimoiy tartib, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy taraqqiyot, buyrokratiya, nominak demokratiya, real demokratiya, ijtimoiy nazorat, deputatlar korpusi, ijtimoiy fikr, parlament, daxldorlik hissi, befarqlik kayfiyati, fuqorolik jamiyati, ijtimoiy tartibsizlik, korrupsiya, harakatlar strategiyasi, jamoatchilik nazorat.

O'zbekiston mamlakati dadil qadamlar bilan rivojlanib dunyoda o'zini munosib o'rniga ega bo'lib bormoqda. Lekin bugungi kunga kelib mamlakatimizni yanada rivojlantirishda ayrim muammolar to'siq bo'lmoqda. Bunda eng asosiy muammo ijtimoiy tartibning barqarorligi to'liq ta'minlanmaganligi bilan bog'liq. Ijtimoiy tartibni barqarorligiga asosiy to'siq bu buyrokratiya va korrupsiya illatidir. Buyrokratiya va korrupsiyaning asosiy sababi demokratiyaning kuchsizligi natijasida qonunni buzish imkoniyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning mavjudligi. Ushbu xususda gapirib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Bizda bugun nominal demokratiya bor biz uni real demokratiyaga aylantirishimiz kerak"¹ deb ta'kidladilar. Qonunni buzish imkoniyati borligining sababi esa, demokratiyaning muhim elementi bo'lgan nazorat faoliyatining zaifligi bilan bog'liq. Nazorat faoliyati qonun ustuvorligi va jazoni muqarrarligini ta'minlashga qodir bo'lishi uchun nazorat tizimli xarakterda bo'lishi bo'lishi lozim. Nazorat tizimi davlat va jamiyatning sheriklikdagi nazoratidan iborat bo'lib ularning vositalari yagona mexanizm sifatida ishlab turishi lozim. **Bunday nazoratni ya'ni davlat va jamiyatning birgalikdagi nazoratini ijtimoiy nazorat degan tushuncha bilan ifodalash mumkin.** Bugungi kunda bizlarda davlat nazorati nisbatan kuchli, jamiyat nazorati esa nisbatan kuchsiz. Jamiyat tomonidan nazoratni amalga oshiradigan asosiy vositalar bu siyosiy partiyalar, deputatlar korpusi va mahalla instituti hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev yuqorida qayd qilingan ma'ruzalarida asosiy e'tiborni siyosiy partiyalar va deputatlar nazoratini kuchaytirish masalalariga qaratdilar.²

Ushbu mavzuda gapirishdan oldin siyosiy partiyalarni funksiyalarini aniqlab olish kerak. Ma'lumki siyosiy partiyalarning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan uchta asosiy funksiyasi bor. Bular nomzodlar bilan ishlash, deputatlar bilan ishlash va ijtimoiy fikrni shakllantirish funksiyalaridir. Ushbu funksiyalarni amalga oshirilishi nazorat faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki nomzod bilan, deputat bilan ishlash deganda jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash orqali ijtimoiy fikrni shakllantirishga qodir bo'lgan Parlament nazoratini shakllantirish tushuniladi.

¹ Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent 2017 yil

² Mirziyoyev SH.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. Toshkent 2017 yil

Umuman yana shuni e'tirof etish kerakki ijtimoiy fikrni shakllantirishni o'zi nazoratning muhim elementi hisoblanadi. Siyosiy partiyalar va deputatlar nazorat faoliyatining pastligini asosiy sabablaridan biri ularda nazorat faoliyatiga doir bilimning yetarli emasligidir. Ikkinchi muhim sabablardan biri bu befarqlik kayfiyatini to'liq jilovlanmaganligi va daxldorlik hissini yetarli darajada shakllanmaganligi. Shuning uchun muhtaram Prezidentimizning ma'ruzalari Parlament haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va ijrochisi bo'lishi kerak deb nomlangan. Parlament demokratiya maktabiga aylanishi uchun uni nazorati kuchli bo'lishi kerak, chunki demokratiya bu nafaqat hokimiyat xalq tomonidan shakllanishi balki xalq tomonidan nazorat qilinishi hamdir.

Parlament islohotlarning tashabbuskori va ijrochisi bo'lishi uchun eng avvalo unda befarqlik kayfiyati jilovlanib daxldorlik hissi shakllangan bo'lishi lozim. Befarqlik kayfiyati jilovlanib daxldorlik hissi shakllanishi insonning ma'naviy yuksalishiga bog'liq. Ushbu fikr mulohazalardan kelib chiqib muhtaram Prezidentimizning ma'ruzalarida ko'tarilgan **ikkita muammoning yechimi ikkita narsaga bog'liq** deb aytish mumkin. Birinchi muammo, siyosiy partiyalar va deputatlar korpusining nazorat faoliyatini demokratiya talabi darajasidan orqada qolayotganligi. Ikkinchi muammo, siyosiy partiyalar va deputatlardagi befarqlik kayfiyatini jilovlanmaganligi va daxldorlik hissining zaifligi. Ma'ruzada befarqlikni dushmanlikka tenglashtirilishi ushbu muammoni naqadar muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Birinchi muammoning yechimi siyosiy partiyalarni va deputatlarni nazorat faoliyatiga doir bilim bilan qurollantirishga bog'liq. Ikkinchi muammoning yechimi esa, siyosiy partiyalar va deputatlarni ma'naviy yuksaltirish bilan bog'liq. Bu ikkita yechimga erishish uchun esa siyosiy partiyalar va deputatlarga "Ijtimoiy nazorat" faniga doir bilimlarni berish kerak. Chunki ushbu fan nafaqat nazoratga doir bilimni beradi balki inson ma'naviyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Nega deganda ijtimoiy nazoratni amalga oshirish faqat nazorat faoliyatiga doir bilimning bog'liq emas buning uchun ma'naviyat negizida shakllanadigan daxldorlik hissi ham zarur. Shuning uchun siyosiy partiyalar va deputatlarga "Ijtimoiy nazorat" fanini o'qitish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ijtimoiy nazoratga doir bilim har ikkala muammoni yechishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda **ikkita muammoning yechimi bir narsaga bog'liq** ya'ni ijtimoiy nazoratga bog'liq.

Ushbu fanga doir bilim ijtimoiy-gumanitar fanlarning ya'ni tarixchi, faylasuf, sotsiolog, politolog, psixolog va boshqalarni hamkorlikdagi tadqiqotlari natijasida ishlab chiqiladi. Ushbu fanning ahamiyati shundan iboratki bugungi kunda ta'lim tizimidagi biror-bir fan nazorat faoliyatiga doir bilimni kompleks tarzda bermaydi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda jamiyat nazorati, jumladan, siyosiy partiyalar va deputatlar nazorati talabga javob bermayapdi.

Shuning uchun "Ijtimoiy nazorat" fanini nafaqat siyosiy partiyalar va deputatlarga balki barcha fuqarolik jamiyati institutlariga o'qitish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan bo'lishi lozim. Nazorat faoliyatiga doir bilimni aholining keng qatlamlariga singdirish uchun eng avvalo ushbu faoliyatga doir bilimlarni ishlab chiqishni yo'lgan qo'yish lozim. Buning uchun "Ijtimoiy nazorat"ga doir bilimni ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratish choralari ko'rish kerak. Bunda oliy ta'lim tizimida "Ijtimoiy nazorat" kafedrasini ochish va jamiyatshunos olimlarni tadqiqotlarini amalga oshirishga sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu borada SamDUda ma'lum bir ishlar boshlab yuborilgan va 2012 yildan buyon "Ijtimoiy nazorat"³ fani ishlab chiqilib va talabalarga o'qitilib kelinmoqda.

³ Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand 2016 yil

Nazorat faoliyatiga doir bilimning muhimligini angalab olish uchun insonning azaliy orzusi bo'lgan baxtli hayotni qurish ham nazorat bilan bog'liqligini bilish kerak. Bosh maqsadimiz bo'lgan odamlarga **baxtli hayotni** beradigan ozod va obod farovon jamiyat qurishning eng muhim sharti bu adolatli ijtimoiy tartibning o'rnatilganligidir. Chunki farovon jamiyat ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot esa ijtimoiy tartibga bog'liq. Ijtimoiy tartib muammosi barcha vaqtlarda eng murakkab, eng dolzarb muammo bo'lgan va bugungi kunda ham xuddi shunday bo'lib qolmoqda. **Ijtimoiy tartib** huquq va axloq normalariga rioya qilish ta'minlanganlik holati bo'lib u **nazorat faoliyati** orqali ta'minlanadi. Lekin nazorat faoliyati ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lishi uchun u davlat va jamiyatning sherikligidagi nazoratidan iborat bo'lishi lozim. Davlat va jamiyatning sheriklikdagi nazorati **ijtimoiy nazorat** degan tushuncha bilan ifodalanadi. Tarix shundan guvohlik bermoqdaki agar nazoratni faqat yuqoridan davlat amalga oshirsa ijtimoiy tartibni o'rnatish muammo bo'lib qoladi.

Davlat nazorati kuchayib borgan sari buyrokratiya va korrupsiya kuchayib borib ijtimoiy tartibsizlik kelib chiqadi. Ijtimoiy tartibsizlik esa har qanday jamiyat uchun halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan milliy xavfsizligimizga eng xavfli tahdid bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o'z faoliyatida asosiy e'tiborni korrupsiyaga qarshi kurash olib borishga qaratmoqda, chunki aynan ana shu **korrupsiya illati ijtimoiy tartibni o'rnatishga to'siq bo'lmoqda**. Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan 2016- yilning 5- oktabrda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonun ishlab chiqish taklif qilindi va qisqa vaqtda mazkur qonun ishlab chiqilib 3 - yanvar 2017- yilda matbuotda e'lon qilindi. Mazkur qonun ijtimoiy tartibni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda ijtimoiy tartibdan eng manfaatdor shaxs Prezident ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Buni oila misolida ham ko'rish mumkin, oiladagi tartibdan eng manfaatdor odam bu ota-ona ekanligi oddiy haqiqatdir. Mamlakatni ham katta oila deb olsak undagi tartibdan eng manfaatdor odam davlat rahbari ya'ni prezident ekanligini ko'rish mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonni 2017-2021 yillarda rivojlantirish Harakatlar Strategiyasida va Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan bo'lgan uchrashuvdagi **"Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak"** nomli ma'ruzalarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmini shakllantirish va siyosiy partiyalar, deputatlar nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Siyosiy partiyalar va deputatlar nazoratini amalga oshirishda hamda jamoatchilik nazorati mexanizmini ishlab turishida nazorat faoliyatiga doir bilimni beradigan "Ijtimoiy nazorat" fani muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy nazorat o'quv kursi orqali muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalari, chiqishlari, intervyulari va asarlarini tizimli ravishda o'rganish imkoniyati ham kengayadi. Chunki Prezident asarlarida adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi va uning o'rnatilishi ijtimoiy nazoratga bog'liqligi masalasi markaziy o'rinni egallaydi, nega deganda yuqorida ta'kidlaganimizdek nazorat faoliyati beradigan ijtimoiy tartibdan eng manfaatdor shaxs Prezident hisoblanadi. Barcha vaqtlarda davlat rahbarlari va donishmandlar qanday qilsak jamiyatda tartib bo'ladi? degan savolni javobini qidirib kelishgan. Bugungi kunga kelib ijtimoiy tartibni o'rnatishning eng maqbul yo'li sifatida demokratiya va uning tarkibiy elementi bo'lgan ijtimoiy nazorat tan olinmoqda. Shuning uchun muhtaram Prezidentimiz asarlarida ijtimoiy tartib va ijtimoiy nazorat masalalari markaziy o'rini egallagan.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib “Ijtimoiy nazorat” o‘quv kursini oliy ta’lim tizimiga kiritishni va siyosiy partiyalar hamda deputatlarni malakasini oshirishda o‘qitilishini taklif qilamiz. Ijtimoiy nazoratga doir bilim demokratiya sharoitida yashashga qodir bo‘lgan avlodni tarbiyalashda va fuqarolik jamiyatini, jumladan siyosiy partiyalarni, deputatlarni kuchli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyatini kuchli qilish esa zamonamiz mohiyati bo‘lgan “Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi talabi bo‘lib hisoblanadi. Chunki Harakatlar Strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini kuchli qilish va jamoatchilik nazoratini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.⁴

Harakatlar strategiyasi talablaridan kelib chiqib 2017- yilning 20- aprelda ishlab chiqilgan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ – 2909 sonli Qarori Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqin holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni asosiy maqsad sifatida belgilab bergan.⁵ Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim sharti ijtimoiy tartib hisoblanadi va uning o‘rnatilishi ijtimoiy nazoratga bog‘liq. Masalan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda qulay investitsion muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qulay investitsion muhit deganda ijtimoiy nazorat orqali ta’minlanadigan adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilgan muhit tushuniladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida “Ijtimoiy nazorat” fanini joriy qilinishi bosh maqsadimiz bo‘lgan **farovon jamiyat qurishni ta’minlaydigan ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qiladi.** Buni quyidagi konsepsiya bilan ifodalash mumkin: **“ijtimoiy nazorat-ijtimoiy tartib-ijtimoiy taraqqiyot-farovon jamiyat”** ya’ni ijtimoiy nazorat ijtimoiy tartibni ta’minlaydi, ijtimoiy tartib esa ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlaydi, ijtimoiy taraqqiyot esa farovon jamiyatni ta’minlaydi.

Siyosiy partiyalar va deputatlar o‘quv kursida asosiy e’tibor yuqorida qayd qilingan maqsad va vazifalardan kelib chiqib siyosiy partiyalar va deputatlarni nazoratga doir bilim bilan qurollantirish hamda ma’naviy yuksalish asosida befarqlik kayfiyatini jilovlab daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladigan bilimlarni beradigan mavzularga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nazoratga doir bilim bilan qurollangan siyosiy partiya o‘zini funksiyalarini amalga oshirishga qodir bo‘ladi. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalari nomzodlar bilan ishlash, deputatlar bilan ishlash va ijtimoiy fikrni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy fikrni shakllantirish nazorat faoliyatining mahsuli va nazoratning eng ta’sirli vositasi hisoblanadi. Nazorat faoliyatiga doir bilim jamiyatning ham siyosiy, ham huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun nazorat faoliyatiga doir bilim siyosiy partiyalarni kuchli qilishga xizmat qiladi deb aytish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan 2017- yil 12- iyulda bo‘lgan videoselektor yig‘ilishidagi “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak” nomli ma’ruzasi talablaridan kelib chiqib deputatlar va siyosiy partiyalar faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida ularga nazorat faoliyatiga doir bilimlarni va axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan ma’naviyatni

⁴ Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent 2017 yil

⁵ O‘zbekiston respublikasi Prezidenti PQ -2909 sonli 2017 yil 20 apreldagi “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent 2017 yil

yuksalishiga xizmat qiladigan g'oyalarni beradigan o'quvlarni tashkil etish to'g'risida taklif berish mumkin. Nazoratga doir bilim bilan qurollangan va befarqlikni jilovlab daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladigan ma'naviy yuksaklikka erishgan siyosiy partiyalar o'zini nazorat funksiyasini amalga oshirishga qodir bo'ladi. Siyosiy partiyalar nazorati esa o'z navbatida mamlakatimizda shakllanayotgan nazorat mexanizmini harakatga keltirib adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini shakllantiradi. Adolatli ijtimoiy tartib esa jamiyat taraqqiyotini ta'minlab orzu qilinayotgan farovon jamiyatni qurishga sharoit yaratadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent 2017 yil
2. Mirziyoyev SH.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. Toshkent 2017 yil
3. Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent 2017 yil
4. O'zbekiston respublikasi Prezidenti PQ -2909 sonli 2017 yil 20 apreldagi "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent 2017 yil
5. Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand 2016 yil